

**O'RTA OSIYODA IJTIMOYIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
1-son. 3-qism. Noyabr-2025**

**IJTIMOYIY XAVF GURUHIDAGI BOLALAR BILAN ISHLASHDA
MULTIDISIPLINAR YONDASHUV**

Soyibjonova Dilnoza Shuhratbek qizi

Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada ijtimoiy xavf guruhiga mansub bolalar bilan ishlashda multidisiplinar yondashuvning ahamiyati, mazmun-mohiyati hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy ishchi, psixolog, pedagog, shifokor va huquqshunoslarning hamkorlikdagi faoliyati natijasida bolalarning ijtimoiy moslashuvi va himoyasi ta'minlanishining samarali usullari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, O'zbekistonda bolalarni himoya qilish tizimida joriy etilayotgan zamonaviy mexanizmlar va davlat dasturlari tahlil qilinadi. Multidisiplinar yondashuvning ustun jihatlari sifatida muammoga kompleks tarzda yondashuv, individual reabilitatsiya dasturlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari alohida yoritiladi. Maqolada amaliy tavsiyalar ham keltiriladi.

KALIT SO'ZLAR: Ijtimoiy xavf guruhi, bola huquqlari, multidisiplinar yondashuv, ijtimoiy ish, reabilitatsiya, psixologik yordam, himoya tizimi, ijtimoiy moslashuv, davlat dasturlari, mahalla tizimi, profilaktika, hamkorlik, ijtimoiy xizmatlar.

ABSTRACT: The article analyzes the importance, essence, and practical aspects of a multidisciplinary approach in working with children belonging to social risk groups. The effective cooperation of social workers, psychologists, teachers, doctors, and lawyers ensures the social adaptation and protection of such children. The article also examines modern mechanisms and state programs implemented in Uzbekistan for child protection. The main advantages of a multidisciplinary approach, such as a comprehensive view of the problem, individualized rehabilitation programs, and social support mechanisms, are highlighted.

KEYWORDS: Social risk group, child rights, multidisciplinary approach, social work, rehabilitation, psychological assistance, protection system, social adaptation, state programs, community, prevention, cooperation, social services.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется значение, сущность и практические аспекты мультидисциплинарного подхода при работе с детьми, относящимися к социально-уязвимым группам. Рассматривается деятельность социальных работников, психологов, педагогов, врачей и юристов, направленная на обеспечение социальной адаптации и защиты таких детей. Также анализируются современные механизмы и государственные программы, реализуемые в Узбекистане в области защиты прав детей.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 1-son. 3-qism. Noyabr-2025

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Социально-уязвимые дети, мультидисциплинарный подход, социальная работа, реабилитация, психологическая помощь, система защиты, социальная адаптация, государственные программы, махалля, профилактика, сотрудничество, социальные службы.

KIRISH

Ijtimoiy xavf guruhidagi bolalar jamiyatda maxsus e'tibor va qo'llab-quvvatlashni talab etuvchi toifa hisoblanadi. Bu bolalar ko'pincha ijtimoiy, iqtisodiy yoki psixologik jihatdan murakkab sharoitlarda ulg'ayadilar. Ular orasida yetim bolalar, ota-onasi mehnat migratsiyasida bo'lganlar, nogironligi bo'lgan bolalar, zo'ravonlik qurbonlari yoki ijtimoiy nosog'lom muhitda yashovchilar mavjud. Shu sababli bunday bolalar bilan ishlashda birgina ijtimoiy ishchi emas, balki turli soha mutaxassislari ishtirokini talab etuvchi multidisiplinar yondashuv muhim o'rin tutadi. Multidisiplinar yondashuv deganda, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va huquqiy yo'nalishlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tushuniladi. Bu esa bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, uni jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga yordam beradi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimida bolalar huquqlarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xususan, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari hamda "Mehribonlik" uylari va "Oilaviy bolalar uylari" faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mazkur yo'nalishda huquqiy asos vazifasini bajaradi. Ijtimoiy xavf guruhidagi bolalar bilan ishlashda multidisiplinar yondashuv quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: ijtimoiy himoya, tibbiy rehabilitatsiya, psixologik yordam, pedagogik qo'llab-quvvatlash va huquqiy maslahat. Har bir mutaxassis o'z yo'nalishi doirasida bolaning individual ehtiyojlarini o'rganadi va yagona rehabilitatsiya dasturini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy ishchi bu jarayonning muvofiqlashtiruvchisi sifatida faoliyat yuritadi. U bola haqida dastlabki ma'lumotlarni to'playdi, uning ijtimoiy muhitini o'rganadi va tegishli mutaxassislarni jalb etadi. Psixolog bolaning ruhiy holatini tahlil qiladi, stress va travmalarni kamaytirish uchun individual terapiya usullarini qo'llaydi. Pedagog esa bolaning bilim darajasini aniqlab, ta'lim jarayoniga qayta jalb etish strategiyasini ishlab chiqadi. Shifokor bolaning sog'lig'i holatini baholaydi, zarurat bo'lsa, rehabilitatsiya jarayonini tashkil etadi. Huquqshunos esa bolaning huquqlarini himoya qilish, huquqiy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi. O'zbekiston sharoitida multidisiplinar yondashuv amaliyoti tobora kengayib bormoqda. Mahalla tizimi, "Bolalarni himoya qilish markazlari", "Mehribonlik" uylari, ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari hamkorlikda faoliyat olib bormoqda. Bu tizimda "inson manfaatlari – hamma narsadan ustun" tamoyili ustuvor hisoblanadi.

O‘RTA OSIYODA IJTIMOYIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 1-son. 3-qism. Noyabr-2025

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, multidisiplinar yondashuvning samaradorligi mutaxassislar o‘rtasidagi axborot almashinuvi, ishonch va doimiy tahlil jarayonlariga bog‘liq. Bolaning hayoti va rivojlanishidagi o‘zgarishlar muntazam monitoring qilinib boriladi. Shuningdek, har bir holat uchun individual reja tuziladi, unda maqsad, vosita, natija va baholash mezonlari aniq belgilanadi. BMT, UNICEF, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar ham O‘zbekistonda multidisiplinar yondashuv asosida ijtimoiy xavf guruhidagi bolalar bilan ishlash dasturlarini qo‘llab-quvvatlamoda. Ularning tavsiyalarida bolaning huquqiy, tibbiy, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini bir butun tizim sifatida ko‘rish lozimligi ta’kidlanadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ijtimoiy xavf guruhidagi bolalar bilan ishlashda multidisiplinar yondashuv ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Bu tizim ijtimoiy ishchidan yuqori malaka, koordinatsiya va insonparvarlikni talab etadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda mutaxassislar tayyorlash, ularning o‘zaro hamkorligini mustahkamlash va mahalliy darajada yangi ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4313-son Qarori.
2. Karimova M. “Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyoti”. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
3. Rasulova D. “Bola huquqlari va ijtimoiy himoya tizimi”. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
4. Abdullaeva N. “Ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning zamonaviy shakllari”. – Toshkent, 2020.
5. UNICEF Uzbekistan hisobotlari (2023). “Social Protection for Vulnerable Children in Uzbekistan”.